

• Tadbir

Tuman axborot-kutubxona markazi xodimlari tomonidan "Shodlik" MFY hududida joylashgan 17-umumta'lim maktabida yuksak ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan tadbir tashkil etildi. Mazkur tadbir buyuk sarkarda, o'rta asrlar tarixida o'chmas iz qoldirgan, ulkan saltanat asoschisi, Sohibqiron Amir Temur tavalludining 690 yilligiga bag'ishlandi.

INTELLEKTUAL BELLASHUV

Tadbir "Kuch adolatdadir" shiori ostida o'tkazilgan "Zakovat" intellektual o'yini shaklida bo'lib, unda yosh kitobxonlar faol ishtirok etdilar. Bellashuv davomida ishtirokchilar nafaqat tarixiy bilimlarini sinovdan o'tkazdilar, balki mantiqiy fikrlash, tezkor qaror qabul qilish hamda jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini ham namoyon etdilar.

Intellektual o'yin natijalariga ko'ra, 1-o'rinni "Bingo" jamoasi, 2-o'rinni "Ideal" jamoasi, 3-o'rinni "Everest" jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritishdi.

Tadbir davomida Amir Temur shaxsining tarixdagi o'rni va roli haqida ham alohida to'xtalib o'tildi. Sohibqiron nafaqat buyuk sarkarda va davlat arbobi, balki ilm-fan va

madaniyat homiysi sifatida ham jahon tarixida yuksak mavqega ega ekanligi ta'kidlandi. Uning adolatli boshqaruv tamoyillari, markazlashgan davlat barpo etishdagi siyosati hamda ilm ahli va san'atkorlarga ko'rsatgan e'tibori bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Ma'rifiy qismda Temuriylar davri tarixshunosligi, Sohibqiron faoliyatini o'rgangan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy tadqiqotlari haqida ham qisqacha ma'lumotlar berildi. Ayniqsa, uning davlat boshqaruvida adolatni ustuvor qo'yganligi, "Kuch adolatdadir" degan g'oyani hayotiy mezon darajasiga ko'targani alohida e'tirof etildi.



Mazkur tadbir yoshlar qalbida tarixga hurmat, milliy o'zlikni anglash va buyuk ajdodlar merosiga sadoqat tuyg'ularini yanada mustahkamlashga xizmat qildi. Shu bilan birga intellektual o'yinlar orqali yosh avlodni bilim olishga, mustaqil fikrlashga va o'z ustida ishlashga undash yo'lida muhim qadamlardan biri bo'ldi.

Bunday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yurtimizda yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ularni tarixiy merosimiz bilan yaqindan tanishtirish va ularda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nargiza O'LJAYEVA,
tuman Axborot-kutubxona
markazi xodimi